



JADID MAKTABLARI FAOLIYATIDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARINING AHAMIYATI

Gulboyev Husan Shokir og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805571>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2023

Accepted: 05th April 2023

Online: 06th April 2023

KEY WORDS

"Risolai ashobi savod", yangi usul maktablari, teatr, pedagogik kompetensiya, ma'rifatchilik.

ABSTRACT

Ushbu maqola Mahmudxo'ja Behbudiyning XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidchilik harakatidagi faoliyati haqida bo'lib, yangi usul maktablarining tez savod chiqarishdagi ahamiyati, dars ta'lim tizimi haqida mulohazalar yuritilgan. Maqolada M.Behbudiyning yangi usul maktablarining tuzilishi, darsliklarning yaratilishi va boshqalar yuzasidan qarashlari o'z ifodasini topgan.

Jadidchilik faoliyatining tub mohiyati kishilik jamiyatimizning rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, o'tgan davrda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar ilm-fan sohalarini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilgan deyish mumkin. Jadidchilik harakatining asoschilari milliy mafkurani oshirish hamda istiqolga erishish yo'lida bilim salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik faoliyatida yangi darsliklar yaratishning ahamiyatini va qolaversa, ularni yangi usul maktablariga targ'ib qilish masalasini ilgari surganlar. M. Behbudiyning yangi usul maktablarida o'qitish texnikasining yangi tahlilda amalga oshirilayot darslik majmualarining yangilanishiga munosib hissa qo'shdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy faoliyati yangi usul maktablarini yaratishdagi ilmiy izlanishlar bilsn bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Bunda yangi usulda faoliyat yuritayotgan yangi usul maktablarining o'quv qurollari bilan ta'minlanishi, yangi darsliklarning chop ettirilishi dolzarblilikni yuzaga keltiradi. Ushbu masalalar yuzasidan Mahmudxo'ja Behbudiyning "1904-1909- yillarda u o'zbek va tojik tillarida "Risolai ashobi savod", "Mungaxabi jug'rofiyayi umumiy"(Qisqacha umumiy geografiya), "Kitobat ul-atvol"(Bolalar maktablari), "Muxtasar tarixi Islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Madxali julrofiyayi umroniy"(Aholi geografiyasiga kirish), "Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy"(Rossiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklarni yaratdi".[1] Bunday yangi usul maktablarida o'qitilishi lozim bo'lgan darsliklarni yaratishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirish darajasini inobatga olgan holatda ularni yozma qolaversa, og'zaki nutq qoidalariga o'rgatish masalalari e'tiborga olingan. Jadid maktablarining "Usuli savtiya" metodi dars tizimining izchilligini ta'minlash, o'quvchilarning tez savod chiqarishlari uchun asosiy-dasturiy vosita bo'lib xizmat qildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik kompetensiyalarga muvofiq keluvchi alifbo yaratib, Turkiston hududidagi barcha maktablarga targ'ib etadi. Aytish lozimki, jadidchilik harakatlari orasida birinchi bo'lib yaratilgan "Risolai ashobi savod" deb nomlanuvchi alifbo tojik tilida yaratilgan. Ushbu alifboning kamchiliklari to'g'irlanib, birinchi bo'lib 1905- yilda Samarqadda



nashrdan chiqartirilgan ekanligi ham Samarqand hududida jadidchilik faoliyatining ilg'or natijalarni yuzaga keltirgan ekanligini bildirib turadi. Ham darslik ham alifbo hisoblanadigan ushbu manba dastlab yangi usul maktablariga targ'ib qilinishdan oldin, Samarqand hududida ta'lim beruvchi maktabdor muallim Abduqodir Shakuriy boshchiligidagi o'quvchilar bilan bir yil davomida tajribada qo'llangan. Qo'llanilgan tajribalardan ijobiy natijalar olingach, Samarqand, Toshken, Xorazm, Buxoro va boshqa hududlarga yangi usul maktablari uchun asosiy qo'llanma sifatida qo'llanilish uchun asos qilib olingan. Ushbu alifbo jadid maktablari uchun qo'llanma sifatida 1920- yilga qadar qo'llanilib, 1908, 1914- yillarda qayta nashr etilgan. Behbudiyning alifbo yakunida harflar imlosini namunadagidek yo'lga qo'shish uchun mashqlarning berilgani ham darslikning o'ziga xosligini ochib beradi.

Mahbudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" asari olimlar tomonidan "Bolalar uchun kitob, yozuv kitobi" kabi nomlar bilan ham ataladi. Ushbu darslik boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasi, turli mazmuniy-birliklar, ifoda xususiyatlarini oshirishga qaratilgan. "Kitobat ul-atfol" darsligining ahamiyati va o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-o'quvchilarda yozuv texnikasini shakllantirish yuzasidan boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni berish, shu bilan birga nutqning har ikkala shakli kundalik faoliyatda namunaviy ravishda qo'llay olish;

-o'quvchilarda bilim olishning ko'rish, eshitish, yozish texnikasini rivojlantirish orqali ularning individual rivojlanishini yo'lga qo'yish;

-o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirishda xatlar bilan ishlashishni yo'lga qo'yish masalalari. Bunda tarixiy bitiklar, solnomalarning tadqiq etilishi uchun boshlang'ich bilim vazifasini o'tash hamda maktab, mahalla, davlat tizimida xatlar bilan ishlash tizimini munosib yo'lga qo'shish texnikasi ham inobatga olinadi. Shu ma'noda o'quvchilarga rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar bilan ishlashishga o'rgatish, yozish texnikasini shakllantirish;

- o'quvchilarning yozma nutqni oshirishga qaratilgan mashqlar, topshiriqlarning bajarilishi, amaliyotini o'rgatish. Bunda asosan, yozma nutq texnikasini takomillashtirish, qolaversa, imloviy savodxonlikni oshirish yuzasidan "Kitobat ul-atfol" darsligida keltirilgan vazifalarni to'g'ri bajarishga o'rgatishda Turkistonning usuli qadim maktablaridan farqli ravishda darsda o'quvchilarning faolligini oshirish va boshqalar.

"Tanqid yangi yozilgan kitob, jarida va majallalarg'a-da joriy va nofe'dur. Masalan, bir muharrir va yo muallimni sahvini va o'z xizmatig'a beparvoligini va lozim qoida va tartiblarg'a amal qilmay, ommag'a zarar kelturg'onini tanqid etmoq boisi isloh bo'lur. Bizni Turkistonda yangi maktablar xeyle bordur. Yangi risola xeyle bosilib turubdur. Jaridalarg'a maqola va shiorlar o'qulub turubdur, Ammo hanuz tanqid davrig'a yetushganimiz yo'q. Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarg'a qattig' tegar".[2] Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakatiga qadar mavjud bplgan darsliklarga ma'lum o'zgartirishlar kiritish, yangilanayotgan daraliklarga esa tanqid ko'zi bilan qarash, ularni tahlil etishga chaqiradi. M. Behbudiyning asarlari turli axborot va ma'lumotlarga tayanilib dunyoviy bilimlarni o'rganish lozim ekanligini uqtiradi. Ushbu qarashlarning tub mohiyati bugungi kunda ham o'z aksini topadi. Haqiqatdan ham, bugungi kun ona tili va adabiyot darsliklarining mohiyati mavjud til qonuniyatlari haqida bilim berish, ularning yozma va og'zaki nutqini oshirishga qaratilgan ekanligi bilan xarakterlanadi. Boshlang'ich sinfdan o'rta maktab ta'limini olgan talabalar kelajak faoliyatida



o'z fikrlarining mufassal va tugal yetkazib bera olishi lozim. Shunga ko'ra, mahalliy til va chet el tillarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. "Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo'lgan yirik iste'dod egalari- jadid adabi, shoiri, dramaturgi va san'ati arboblarni ham tarbiyalaydi. Behbudiy dramaturg sifatida "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi" dramasi yaratib, savodsizlik, johillikning ayanchli oqibatlarini ko'rsatib bergan".[3] Bilamizki, XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston hududidagi ijtimoiy ahvol qaltis bo'lib, jadidchilik harakatlarining faqatgina yangi usul maktablari asnosida emas, balki, teatrlar, bosmaxonalar, kutubxonalarining ochilishi bilan ham aloqadordir. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangilanayotgan maktablar tizimida amalga oshirgan islohotlarining ahamiyatligi shundaki, jadid maktablariga mos keluvchi darsliklarni yaratish, ularni millat taqdiriga befarq bo'lmagan yigit qizlarni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiyning yangilanayotgan maktablar tizimida yangi darslik va o'quv-qo'llanmalarining joriy etilishida o'zi yaratgan asarlari bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Bu darsliklar: "Bolalar kitobi", "Aholi geografiyasiga kirish", "Risolai ashobi savod" yangi usul maktablarining ta'limini oluvchi yoshlarning bilim ko'nikmalariga yordam berish bilan birgalikda, vatan taraqqiyoti, mustaqilligi yo'lida xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning tez savod chiqarish yo'lida yaratgan asarlarining Samarqanddan tashqari Xiva, Turkiston, Buxoro va boshqa qator hududlarga yoyilishi ham asarlarning talab darajasida yaratilgan ekanligidan dalolat beradi.

References:

1. Abdurashidov Zaynobiddin. "Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy". Toshkent:. Yoshlar nashriyot uyi -2022
2. Hamroyeva Nafisa, Bahronova Mashhura "Mahmudxo'ja Behbudiy va Jadidchilik harakati". "Mahmudxo'ja Behbudiy- O'zbek jadidchiligining asoschisi" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari -2020